

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG  
TARG‘IB QILISH BO‘YICHA HAMKORLIK  
ISTIQBOLLARI»  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

*2020-yil 19-20-oktabr*

**TOSHKENT - 2020**

**«O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari»:  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / Mas‘ul muharrir – Sh. Sirojiddinov. -T.: 2020.  
- 550 bet.**

**Mas‘ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov,**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

**Tahrir hay‘ati:**

**T. Tog‘ayev** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
**Z. Xolmanova** – filologiya fanlari doktori, professor;  
**B. Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor;  
**M. Xakimova** – filologiya fanlari doktori (DSc)  
**N. Ahmedova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**M. Umurzoqova** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
**M. Xolmurodova** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
**Sh. Bobomurodova** – filologiya fanlari nomzodi  
**K. Mavlonova** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Ushbu to‘plamda «O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish uchun amalga oshirilayotgan ishlar, o‘zbek tilshunosligida bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik masalalari, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganish va rivojlantirish masalalari, madaniyatlararo muloqot va o‘zbek tili taraqqiyoti, globallashuv va hozirgi turkiy tillar, o‘zbek tilini o‘qitish muammolari, kompyuter lingvistikasi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan

imkoniyatini inobatga olgan holda ma'lum bir badiiy matn uslubiyatini iloji boricha to'laqonli yetkazib berish vazifasini o'z bo'yniga oladi. Masalan:

1. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim. (A.Qodiriy, "Uloqda") – I ate a hasty snack and ran into the barn. (Tarj. Sh.Sattorov, "At the Ulok")

2. Anchagina o'ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo'ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto'ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim. (A.Qodiriy, "Uloqda") – For some time I thought of what I should do about this problem. Suddenly I remembered a band of leather which my brother was keeping to make a bridle. I went down to the dugout to get it. I made a curb-bit. (Tarj. Sh.Sattorov, "At the Ulok")

3. To'nimning etaklarini yig'ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. (A.Qodiriy, "Uloqda") - I raised the hem of my robe and put it in place so as to sit comfortably. I whipped the colt and it loped forward. (Tarj. Sh.Sattorov, "At the Ulok")

4. "Ha, barakalla! Chavandoz!" degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko'tarib ketayozdi. (A.Qodiriy "Uloqda") – Hearing his praise I whipped the colt again. He flew like an arrow from a bow. (Tarj. Sh.Sattorov, "At the Ulok")

5. Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir to'da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. (A.Qodiriy, "Uloqda") – I took care of my colt by giving him water from an aryk waterway. Here I came across a group of horsemen. (Tarj. Sh.Sattorov, "At the Ulok")

6. Biroz borgach, bizning otimizning oyog'i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi (A.Qodiriy "Uloqda") – We all went on together. But soon he lashed his horse and flew off like a bird. (Tarj. Sh.Sattorov, "At the Ulok")

Yuqoridagi jumladan birinchisida taqlidiy ifoda o'zagida shakllangan fe'l muvaffaqiyatli tarjima qilingan, harakatning tarzi to'laqonli ifodalab berilgan. Shuningdek, ushbu tarz ma'nosini, ya'ni harakatning boshlanib hali ancha davom etishi ma'nosini galloped so'zini ham qo'llash mumkin edi, biroq bu muallif tanlagan loped so'zi ham ayni shu semantik vazifani bajara oladi. Ikkinchi jumlada asrab qo'ygan iborasi was keeping "asrayotgan" sifatida tarjima qilingan. Garchi bu holat matndagi umumiy axborot sifatiga ta'sir etmasa-da, ushbu jumlaning keep up, ya'ni to keep up frazali fe'li bilan almashtirish aslyat matnidagi uslubni saqlab qolishga xizmat qiladi. So'nggi jumladagi shartillatib ravish holi harakatning kutilmaganda va bir necha bor takroran ro'y berganini ifodalaydi. Tarjimada lashed (to lash) fe'lini takroran juft qo'llash va kutilmaganda (suddenly) degan so'z bilan biriktirish orqali gap mazmunini ingliz tilida to'laqonli ifodalashga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Издание третье, исправленное. – М.: Валент, 2006 – С. 381

2. Миньяр-Белоручаев Р.К. Теория и методы перевода. – М.: изд-во «Московский Лицей», 1996. – С. 60.

3. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 6.

#### **Korpus lingvistikasi va soha rivojidadagi o'ziga xosliklar Corpus linguistics and peculiarities of its development**

*Abdullayeva Oqila Xolmo'minovna\**

---

\* Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, [abdullayevaokila@gmail.com](mailto:abdullayevaokila@gmail.com)

***Annotation.** In this paper, we analyze the development trends of corpus linguistics, the complexities of corpus creation. We also analyze the similarities and differences between traditional linguistics' approach and corpus linguistics' approach to the language.*

***Key words:** corpus, applied linguistics, method, corpus-based studies, corpus-driven studies.*

Bugun biror yangi fan yoki soha tashkil topsa, aynan ularni bugun paydo bo'ldi deb hisoblay olmaymiz. Har bir yangi fan boshqa bir fan tarkibida yoki boshqa bir nom ostida rivojlanib, alohida metod va metodologiya yaratib kelgan bo'ladi. Ayniqsa, keyingi yillarda fanlararo integratsiya, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli sohalar qatori tilshunoslik maydonida ham bir qancha sohalar yuzaga keldi. Shulardan biri Korpus lingvistikasi fanidir.

Kutuzov korpus tilshunosligini tushuntirar ekan, korpuslar nafaqat tilning tashqi ko'rinishini tasvirlabgina qolmay, o'quvchiga uni tushuntirishi kerak deb hisoblaydi. Korpus lingvistikasi kursida an'anaviy tilshunoslik va korpus tilshunosligi o'rtasidagi farqlarni keltiradi:

- an'anaviy tilshunoslik tilni o'rganishga e'tibor qaratsa, korpus tilshunosligi diqqat markazida nutqni o'rganish turadi;
- an'anaviy tilshunoslikning maqsadi tilni tavsiflash va tushuntirish, korpus tilshunosligining maqsadi esa tilni maxsus tanlangan matnlar to'plami shaklida nutqda qanday namoyon bo'lgan bo'lsa, xuddi shunday tasvirlashdir;
- tilshunoslik o'z tadqiqotida nazariyadan tushuntirishga va nutqiy faktlarni tasdiqlashga o'tadi, korpus tilshunosligi matn korpusining ma'lumotlariga tayanadi;
- an'anaviy tilshunoslikda sifat bilan bog'liq metodlar afzal ko'rilsa, korpus tilshunosligida miqdoriy metodlar afzaldir;
- an'anaviy tilshunoslik o'zini ratsionalistik usullarga asoslangan an'ananing bir qismi sifatida, korpus tilshunosligi esa empirik usullarga asoslangan an'ananing bir qismi sifatida ko'radi;
- tilshunoslikda matn abstraktsiya sifatida, korpus tilshunosligida matn jismoniy mohiyat sifatida ko'rib chiqiladi;
- tilshunoslik til universalialarini tadqiq etsa, korpus tilshunosligida muayyan tillarning grammatikasi tuzilishi o'rganiladi;
- tilshunoslikda asosiy e'tibor nafaqat shaklga, balki mazmunga ham qaratilgan. Korpus tilshunosligida esa shakl muhimdir;
- tilshunoslikda matnlarni mahalliy nuqtayi nazardan tekshirsa, korpusda global jihatdan ko'rib chiqadi;
- tilshunoslikda muayyan, sun'iy cheklangan muammoli hududni tahlil qiladi, korpusda matnni har qanday dogma tomonidan cheklanmagan ko'rib chiqishga qaratilgan;
- tilshunoslikda nutq materialini tanlashda, ularni tadqiq etishning empirik materiallarini aniqlashda intuitsiyaga asoslansa, korpus tilshunosligida esa o'z xulosalarida matn shaklida namoyon bo'lgan nutqiy faoliyatni kuzatishga asoslanadi;
- tilshunoslik fanida mantiqiy mulohaza afzal ko'rilsa, korpus tilshunosligida ko'pincha nutq materialini birlamchi qayta ishlash uchun ehtimoliy usullar va statistikadan foydalaniladi;
- tilshunoslikda matndan ajratilgan so'zlardan ko'ra sun'iy misollar afzal ko'riladi, korpusda ish lingvistik ma'lumotlar (so'zlardan foydalanish) kontekstda qanday shaklda uchrasa, xuddi shunday foydalaniladi;
- tilshunoslikda empirik og'zaki materialni ishlashda deduktiv usullar afzal ko'rilsa, korpus tilshunosligida induktiv usullar asosiy bo'lib, ularni ilmiy usulning mohiyati deb biladi;
- tilshunoslik taqqoslashlar, baholashlarga asoslangan kashfiyotlarga ishonsa, korpus tilshunosligi empirik ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan ilmiy kashfiyotga asoslanadi (Kutuzov, 2015).

Kutuzov keltirgan taqqoslashlar orqali bir nechta muhim xuloasalarga kelish mumkinki, ulardan biri korpus tilshunosligi amaliy soha bo'lib, tilga oid muhim xulosalarini faqat kontekstda uchraydigan holatiga ko'ra beradi. Korpus tahlillari til qoliplarini va qo'shimchalar kombinatsiyasini taxmin qilish yoki hissiyotlarga ko'ra bashorat qilishga imkon bermaydi.

McCarthy va A.O'Keefe qarashlariga ko'ra "korpus lingvistikasi" deganda, tilshunoslarda yirik hajmli matn hodisalarini kompyuter dasturlarida konkordans tartibi va so'zlar ro'yxati orqali qidirish va tushunish assotsiatsiyasi tez keladi. Korpus lingvistikasining paydo bo'lishini, korpuslarning yaratilishini ko'pincha kompyuter texnologiyalarining kashf qilinishi va rivojlanishi vaqtlariga bog'lashadi. Ammo qo'l mehnati bilan korpus namunasi 13-asrdayoq "Injil" kitobida amalga oshirilgan. Kitobning har bir sahifasidagi so'zlar alifbo tartibida indekslangan, bu Bibliyani o'rganmoqchi bo'lganlar uchun amaliy yordam bo'lgan. Aynan mana shu mashaqqatli ishdan keyin konkordans so'zi paydo bo'lgan deb hisoblaniladi. Mazkur so'zning ma'nosi ham lotincha *cum* va *cor*, ya'ni "yurak bilan" degan mazmunni beradi, bu kitobning ilohiyligi va shu bilan bir qatorda ishning naqadar qiyin bo'lganligi bilan bog'lashadi (McCarthy, O'Keefe, 2010; 03). Kompyuter dasturlarisiz qo'l mehnati bilan tayyorlangan ilk konkordans aynan shu deb hisoblangan. Savol tug'iladi, zamonaviy korpuslar qachon va qanday yaratilishni boshladi?

O'tmishidan hozirgi kunigacha bo'lgan davr ichida korpus lingvistikasida turli qarashlar, yondashuvlar, yangi metodlar paydo bo'ldi. McCarthy qog'oz korpuslarga ham alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi, chunki qo'l mehnati bilan lug'atshunoslar, adabiyotshunoslar o'rtasida yirik loyihalar amalga oshirilib, ulkan ma'lumotlar bazasi yig'ila boshlangan. Shuningdek, olim xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlar ham bu kabi ishlarga turtki bo'lgan deb hisoblaydi. McEnery esa korpus lingvistikasini davrlashtirish kerak deb hisoblaydi va o'z navbatida ikki katta davrga ajratadi. Birinchi davr 80-yillargacha bo'lib, diqqat markazida ikki xil ingliz tilini o'rganish va Chomiskiyning korpusdan foydalanishga qarshi qarashlari namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi davr bugungi kungacha bo'lgan davr. Bu vaqt oralig'ida sohada juda ko'p amaliy ishlar qililib, tilshunoslikning bir yo'nalishimi yoki mustaqil sohami kabi savollarga javob berila boshlandi. McEnery korpus tilshunosligining uchinchi davri boshlandimi yoki kelajakda qanday o'zgarishlar bo'lishi, nafaqat tilshunoslik va uning sohalari bilan, balki tilga oid bo'lmagan boshqa sohalar bilan integratsiyasi sodir bo'lishi haqida bahsli munozaralarni olib brogan (McEnery, Hardie, 2012; 225).

L.Flowerdew korpuslarning nafaqat tilshunoslik sohasidagi yutuqlarini, tadqiqotlarni tahlil qiladi, shu bilan birga pedagogikadagi, ya'ni til o'qitishdagi ahamiyatini yoritib bergan. So'nggi 40 yillik rivojlanishdagi tadqiqotlarni tanqidiy baholab, nega korpusda leksemaga ko'proq e'tibor berilgan degan savolni o'rta tashlaydi. Korpus tahlilida grammatikaga emas, balki lug'atga ko'proq e'tibor berilishining sabablaridan biri korpusning o'zi bilan bog'liq deydi. Ya'ni Grammatik kategoriyalardan ko'ra leksik ma'lumotlarni qidirish osonroq hisoblanadi. Chunki korpusda qidirishning asosiy usuli so'z shakllarining chastotalar ro'yxatini qidirishdir. Ammo bu bilan Flowerdew korpusdan grammatikani o'rganishda foydalanilmaydi degan fikrni rad etadi. Grammatik teglar kiritilgandan so'nggina tahlillarni amalga oshirish mumkin bo'ldi. Masalan, teglanmagan korpusda fe'llarning o'tgan zamon shaklini qidirish samarasiz bo'lar edi (Flowerdew, 2015; 99).

Ba'zi tadqiqotlarda korpus tilshunosligi metodologiya sifatida qabul qilingan, ushbu masala bo'yicha McEnery va Hardining ta'kidlashicha, korpus tilshunosligi "tilni o'rganish uchun monolit, kelishilgan usul va tartib – qoidalar to'plami emas (McEnery, Hardie, 2012; 03)". Bundan ba'zi xulosalar chiqarilishi mumkin, korpus tilshunosligi ko'p fazali bir soha ekanligini anglash juda muhimdir. Keyinchalik bu olimlar korpusga asoslangan tadqiqotlar (corpus-based studies) va korpus boshqaradigan tadqiqotlar (corpus-driven studies) o'rtasidagi farqlarni ham aniqlab berganlar. Ularga ko'ra korpusga asoslangan tadqiqotlar korpus tilshunosligini nazariya yoki gipotezani o'rganishda qo'llaniladigan metodologiya sifatida ko'rib chiqadi, korpus

tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa korpusning o'zini til to'g'risidagi faraz manbai sifatida qaraydi. Bundan tashqari Biber, Konrad va Reppen korpus tilshunosligi tadqiqotlari til strukturasi ko'ra tilni ishlatishga, boshqacha qilib aytganda, spikerlar va yozuvchilar o'zlarining til resurslaridan qanday foydalanishlari yoki tilda nazariy jihatdan mumkin bo'lgan jihatlarga e'tibor berishadi (Da Silva, 2016; 33).

Ingliz-Braun va LOB uchun birinchi standart korpuslar yaratilganidan buyon tezkor texnologik o'zgarishlar, nafaqat korpus analitik vositalarining tarqalishiga olib keldi, balki korpus hajmi jihatidan katta qadamlar tashlanishiga imkon berdi. Zamonaviy korpuslarning hajmi million emas, 100 million so'zdan iborat bo'lib, mutaxassislar turli xil materiallardan foydalanishni boshlagan. Bunga sabab qilib bir necha faktlar keltiriladi:


1. Korpus tilshunoslikning ba'zi sohaları uchun, hatto BNC tipidagi yangi mega o'lchamdagi korpuslar ham unchalik katta emas. Leksik innovatsiyalarning morfologik samaradorligini o'rganish haqiqatan ham yangi mega-korpuslardan ham chetga chiqadigan materiallarga muhtoj bo'lgan.

2. Texnologik rivojlanishlarning o'zi yangi matn turlarini keltirib chiqardi, ulardan Braun kompilyatorlari elektron pochtdan boshqasiga duch kelmagandi. Ularda chat xonasida muzokaralar, matnli xabarlar, bloglar yoki internet jurnallar mavjud edi, bu matn turlari qiziqarli o'rganish obyekti hisoblanadigan matn turlaridir. Bundan tashqari matn turlariga yozma va og'zaki so'zlarni muhokama qilish uchun yangi o'lchovni qo'shdi. Chunki ularning barchasi yozma vositadan foydalanadilar, ammo biz og'zaki aloqada ko'rishimiz mumkin bo'lgan qoliplarga juda yaqin. Ba'zi tashqi variatsiyalar uchun an'anaviy matn turlari mavjud emas, ammo elektron pochta almashinuvida u matnli xabar almashish, bloglar yoki interfaol xatlardan foydalanish mumkin. Va nihoyat, butun dunyo veb-saytidagi (www) yangi matn turlari, shuningdek, "jamoat mulki" dagi kesib o'tish yoki "xususiy til" singari ijtimoiy-pragmatik hodisalarni muhokama qilishda qiziqish uyg'otadi.

3. Standart ma'lumotnoma korpuslarini tuzish uchun ko'p vaqt va katta moliyaviy mablag'lar talab etiladi, ular yaqinda va davom etayotgan o'zgarishlarda tezda eskiradi.

4. WWWning o'zida tildan foydalanish doimiy ravishda o'zgarib turadigan tilni o'zgartirish uchun asosiy manba bo'lishi mumkin. "Weblish" yoki "netspeak"ning tilimizga ta'sirini baholash uchun biz ushbu hodisaning o'zi haqida yaxshiroq tushunchaga ega bo'lishimiz kerak (Hundt, Nesselhauf, Biewer, 2007).

Korpuslar yaratilishi va ularning tadqiqot doirasining kengayishi 80-yillardan shu vaqtgacha keskin o'sdi. Avvaliga ingliz tili korpuslari yetakchilik qilib kelgan bo'lsa, bugunga kelib dunyoning ko'plab rivojlangan tillarning korpuslari yaratildi. Korpus lingvistikasi atamasining o'sish sur'ati E.Vaughan va A.O'Keefelar maqolasida tahlil qilingan. Bunda Google Ngram Viewer programmasidan foydalangan holda tasvirlangan.



Korpus lingvistikasi atamasining adabiyotlarda uchrashi

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korpuslar til nazariyasi emas, balki ma'lumotlarni ham miqdor, ham sifat jihatidan ko'rish va tahlil qilish usulidir. Korpus-lingvistik yondashuvdan til xususiyatlarini tavsiflash va turli lingvistik doiralarda shakllangan har xil farazlarni sinab ko'rish uchun foydalanish mumkin, ya'ni tabiiy ravishda uchraydigan til namunalari yordamida tilni o'rganadi. Bu tahlillar ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot bilan amalga oshiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. 2015. [http://tc.utmn.ru/files/corpus\\_5.pdf](http://tc.utmn.ru/files/corpus_5.pdf)
2. McCarthy, O'Keefe A. What are corpora and how have they evolved?: The Routledge handbook of corpus linguistics. – London and New York, 2010. 3-4
3. McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: method, theory and practice. – New York, 2012. 225-226
4. Flowerdew L. Corpus-based research and pedagogy in EAP: From lexis to genre. Language Teaching / Volume 48 / Issue 01 / January 2015, pp 99 – 116. [http://journals.cambridge.org/abstract\\_S0261444813000037](http://journals.cambridge.org/abstract_S0261444813000037)
5. McEnery, T. & Hardie, A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. – New York, 2012
6. Da Silva L.G. Academic vocabulary: a corpus linguistics study on how Brazilian students write academic English. [https://englishagenda.britishcouncil.org/sites/default/files/attachments/mda2017\\_special\\_comme ndation\\_larissa\\_goulart\\_da\\_silva\\_university\\_of\\_warwick.pdf](https://englishagenda.britishcouncil.org/sites/default/files/attachments/mda2017_special_comme ndation_larissa_goulart_da_silva_university_of_warwick.pdf)
7. M.Hundt, N.Nesselhauf, C.Biewer. Corpus linguistics and the web. – Amsterdam-New York, 2007. ([https://books.google.co.uz/books?id=SdsA\\_xydxycQC&pg=PA69&dq=corpus+linguistics&hl=r u&sa=X&ved=0ahUKEwjco42UzqrkAhVBw4sKHSCACu84ChDoAQhVMAY#v=onepage&q =corpus%20linguistics&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=SdsA_xydxycQC&pg=PA69&dq=corpus+linguistics&hl=r u&sa=X&ved=0ahUKEwjco42UzqrkAhVBw4sKHSCACu84ChDoAQhVMAY#v=onepage&q =corpus%20linguistics&f=false))
8. Vaughan E., O'Keefe A. Corpus analysis. 2015 [https://www.researchgate.net/publication/291344603\\_Corpus\\_Analysis](https://www.researchgate.net/publication/291344603_Corpus_Analysis)

#### Perifrazalarning milliy-etnik xususiyatlari National-ethnic features of periphrases

*Ahmadova Umida Shavkatovna\**

**Annotation:** *The article analyzes the national-ethnic features of the periphrastic units, which have become the main means of social communication, and their practical significance on the basis of evidence-based examples.*

**Key words:** *periphrasis, figurative expression, social, communication, national-ethnic, language, linguistics, vernacular, culture, attitude.*

---

\*Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, [u.s.ahmadova@buxdu.uz](mailto:u.s.ahmadova@buxdu.uz)

85	<b><i>Mavlyanov Sanjar</i></b> O‘zbek tilida diplomatik terminlar o‘rtasidagi leksik – semantik xususiyatlar	340
86	<b><i>Абдуллаева Гәүһәр</i></b> Тәрки телләрдәге полипредикатив конструкцияләр	345
87	<b><i>Hojiyeva Nigina</i></b> Olma leksemasi xususida	347
88	<b><i>Hasanov Abdumannon</i></b> Dialektlar – til leksikasini boyitish manbayi	353
<b>V SHU‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA</b>		
89	<b><i>Mengliyev Baxtiyor</i></b> O‘zbek tili taraqqiyoti va rivojlanish omillari	358
90	<b><i>Mengliyev Baxtiyor, Xamroyeva Shahlo</i></b> Turkiy tillardagi morfologik analizatorlar xususida	360
91	<b><i>Qurbonova Munavvara Abdujabborovna</i></b> O‘zbek nutq sintezatori uchun leksikografik manbalar ta‘minoti	364
92	<b><i>Ernazarova Manzura, Bazarbayeva Navbahor</i></b> Grammatik ma‘noning lisoniy va pragmatik omillar hamkorligida o‘rganilishi	366
93	<b><i>Azimova Iroda Alisherovna</i></b> O‘zbek tilidagi agrammatik afaziyada fe’llarning tushunilishi	371
94	<b><i>Gatiatullin Ayrat, Abduraxmonova Nilufar</i></b> O‘zbek tilining lingvistik ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda “turkiy morfema” portali instrument sifatida	376
95	<b><i>Xamroyeva Shahlo</i></b> O‘zbek tilshunosligida axborot-qidiruv tizimlari lingvistik ta‘minoti borasidagi ishlar haqida	385
96	<b><i>Eshmuminov Asqar</i></b> Jahon va o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining tadrijiy taraqqiyoti	388
97	<b><i>Yo‘ldoshev R. A.</i></b> O‘zbek tilida nomsiz, o‘gay qo‘shimchalarning kategorial o‘rni haqida	392
98	<b><i>Mo‘yidinov Qodirjon</i></b> O‘zbek tilidagi ayrim terminlarning sud nutqida qo‘llanishi	396
99	<b><i>Ibragimova Guli Toirovna</i></b> O‘zbek tili milliy korpusining interfeysini shakllantirish algoritmi	398
100	<b><i>Gulyamova Shaxnoza</i></b> Omonimlarning kompyuter lingvistikasidagi tadqiqi	401
101	<b><i>G‘aybullayeva Nafisa</i></b> Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasiga oid ayrim mulohazalar	408
102	<b><i>Turdaliyeva Dilfuza Soloxidinovna</i></b> Xalq maqollari mualliflik variantlarining badiiy nutqdagi o‘rni	409
103	<b><i>Mengliyeva Munira</i></b> O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning amaliy masalalari	411
104	<b><i>Abdullayeva Oqila</i></b> Korpus lingvistikasi va soha rivojidadagi o‘ziga xosliklar	407
105	<b><i>Ahmadova Umida</i></b> Perifrazalarning milliy-etnik xususiyatlari	411